



**BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA KREATIV TAFAKKURINI
SHAKLLANTIRISH OMILLARI**

Panjiyeva Muattar XXX

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti Pedagogika Fakulteti

Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Zaripova Barchinoy Abdumajit qizi

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti Pedagogika Fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

4-bosqich 3bt-21gruh talabasi

zaripovabarchinoy6@gmail.com

Tel: +9988-88-850-99-02

Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin.

Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin

Shavkat Mirziyoyev

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilaridagi kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida foydalanish lozim o'qituvchi vazifalari haqidagi kerakli ma'lumotlar va manbalar keltirib o'tilgan. Maqolada berilgan ma'lumotlar asosida o'qituvchilar va ota-onalar o'zilar uchun kerakli tavsiyalarni olishlari mumkin.

Kalit so'zlar: ta'lim, metodika, tafakkur, kreativlik, belgi, mashq, fikrlash, ijodkorlik, fikrlash, erkinlik, individuallik, innovatsiya, pedagogik, psixologik.

ABSTRACT

This article provides the necessary information and resources on the tasks of the teacher, which should be used to develop creative abilities in primary school students. Based on the information provided in the article, teachers and parents can get the necessary recommendations for themselves.





Keywords: education, methodology, thinking, creativity, character, exercise, thinking, creativity, thinking, freedom, individuality, innovation, pedagogical, psychological.

АННОТАЦИЯ

В статье представлена необходимая информация и ресурсы о задачах учителей, которые следует использовать для развития творческих способностей учащихся начальной школы. На основе информации, представленной в статье, педагоги и родители могут получить необходимые для себя рекомендации.

Ключевые слова: образование, методика, мышление, творчество, характер, упражнение, мышление, креативность, мышление, свобода, индивидуальность, новаторство, педагогический, психологический.

Krish.

Yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish uzluksiz ta'lim tizimining boshlangich bo'g'ini bo'lgan boshlang'ich ta'limdan boshlanadi. Maktablarda amalga oshiriladigan ta'lim va tarbiya ishini davr talabi darajasida olib borish maqsadida mamlakatimizda maktab ta'lim sohasida keng ko'lamli ishlar, islohotlar amalga oshirilmoqdaki, bu o'z navbatida o'quvchi yoshlarning sifatli ta'lim va tarbiya olishlari uchun shart-sharoitlar yaratishni asosiy vazifa qilib qo'ygan. Shu sababli bizning oldimizda, o'quvchilarda kreativlikni shakllantirish orqali, kelajagimiz uchun barkamol shaxsni tarbiyalashdek, dolzarb masala turibdi.

Kreativlik (ijodkorlik) – bu yangi, noodatiy, original g'oyalarni ilgari surish, muammolarga turlicha yechim topa olish qobiliyati sifatida talqin etiladi.

Pedagogika va psixologiyada kreativlik xususiyatlarining rivojlanishi. Ta'limning zamonaviy globallashtirish va axborotlashuv sharoitida rivojlanishi va takomillashuvini innovatsiyalarning turli shakllarini tadqiq etmasdan, bugungi kunda mutaxassisni nimaga va qanday tayyorlashga bir qator yondashuv va munosabatlarni tamoyillar asosida ko'rib chiqmasdan amalga oshirish mumkin emas. Shu bilan birgalikda, oily maktab pedagogik tarkibi jadal rivojlanayotgan innovatsion ta'lim tizimi, birinchi navbatda, ijodiy qobiliyatlar, ijod potentsiali o'z-o'zini ijodiy rivojlantirish, ijodiy individuallik va kreativlik talablariga javob berish muammosiga katta e'tibor qaratishi lozim.¹ Shu bilan birgalikda, oliy maktab pedagogik tarkibi jadal rivojlanayotgan innovatsion ta'lim tizimi sharoitida, birinchi navbatda, ijodiy qobiliyatlar, ijodiy potentsial, o'z-o'zini ijodiy rivojlantirish, ijodiy individuallik va kreativlik talablariga javob berish muammosiga

¹] Prezident Sh. Mirziyoyevning 06.04.2021-yildagi PQ-5052sonli qarori





katta e'tibor qaratmoqda. Shaxsning ijodkorlik imkoniyatlarini tadqiq etishga bo'lgan ilmiy buyurtma kreativlik muammosining alohida dolzarbligini belgilaydi. Shaxsiy ijodkorlikning dinamik (rivojlanib, o'sib boruvchi) shakllanishi kreativlik va uning asosiy qirralarida namoyon bo'ladi. Biroq kreativlik psixologiya va pedagogika fanlarining belgilangan ilmiy kategoriyasi bo'lsa-da, "kreativlik" tushunchasi tegishli lug'atlarda to'liq differensiallashtirilmagan va ijod psixologiyasida yetarlicha aniqlanmagan. O'nlab ilmiy ishlarda ilmiy ijodkorlikning turli qirralariga har xil yondashuvlar mavjud bo'lib, ularni turlicha darajada qamrab olgan bo'lsa-da, hozirgacha na muammoning o'zi, na unga taalluqli bo'lgan amaliy savollarga nisbatan yagona to'xtam mavjud emas. Hozirda rivojlanishning zamonaviy bosqichida ushbu an'analarning inson faktori bilan bog'liq hal qiluvchi o'rni belgilab berilmoqda. Bu faktor fenomenologiyasida ijodkorlik uning asosiy tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Ijodkor inson fenomenining yuksak ko'rinishi sifatida talqin etilishiga qaramay, u eng kam o'rganilgan soha bo'lib, tabiiy imkoniyat sifatida qaralmoqda.

Gap shundaki, ijod jarayonining tabiatidagi tasodifanlik, kutilmaganlik avval-boshdanoq uning zamonaviy ilmiy metodlarda o'rganish imkoniyatini chegaraladi. Zamonaviy fan imkoniyatlari ijodkorlik tabiatining mavjud dalillar va savollarga to'liq qoniqarli universal tushuntirish imkoniyatiga ega emas. Hozirgacha Vatanimizda va chet ellarda to'plangan bilimlar ijodkorlik psixologiyasi mohiyatini tushunishga yetarli emas. Jamiyat taraqqiyoti tajribasida psixologiya va pedagogikada ijodkorlik psixologiyasi sohasida izlanishlarni faollashtirish taqozo etilmoqda, chunki ijodkorlik natijalari faqatgina shaxsiy tasnifga ega emas, balki ijtimoiy ahamiyatga egadir. Psixologiyada ijod va ijodiy faoliyat muammosini o'rganuvchi alohida yo'nalish — ijodkorlik psixologiyasi yo'nalishi vujudga keldi. Ijodkorlik psixologiyasining asosiy maqsadi psixologik qonuniyatlar, ijod jarayoni mexanizmi va kreativ (creativity — inglizcha ijodiy)likni o'rganishdan iborat.² Ijodkorlikka rivojlanishning asosiy mexanizmi sifatida (N.V. Kipiyaki, A.M. Matyushkin, Y.A. Ponomaryov, I.N. Semenov va boshqalar) qaraladi va uning o'rganilishi M.S. Bernshteyn, V.S. Bibler, V.N. Shkin, O.K. Tixomirov, E.G. Yudin va boshqalar nomi bilan bog'liq. Psixologik ijodkorlikning kreativlik deb nomlanuvchi yo'nalishi ustida g'arb olimlari: J. Gilford, S. Liding, V. Smit, D. Xalperik va boshqalar izlanishlar olib borishgan. Chet el olimlarining kreativlik tushunchasi haqidagi izlanishlarini tahlil qilib va umumlashtirib R. Xameni yozadi: «Kreativlik o'zida yangicha yo'sinda amalga oshirilgan o'zlashtirish to'lqinini (Makkelif), yangicha

² Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, iimovatsiya va integratsiyasi. O'quv qo'llanma./R.Mavlyanova, N.Raxmankulova. - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - Toshkent. Voris nashriyoti, 2013y 117-b.





aloqadorliklarni aniqlash (Kyubi), yangicha munosabatga kirishish (Rodjers), yangiliklar (Lassuel), ongning yangicha e'tirozlariga sabab bo'luvchi faoliyatdir». Ko'pchilik tadqiqotchilar kreativlikni belgilashda shaxsning o'ziga xosligi va xususiyatlariga e'tibor qaratadilar. J. Gilfordning fikricha, kreativlik va ijodiy imkoniyat qobiliyatlar va ijodiy tafakkurga ta'sir etuvchi omillar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi.

E. Torrens kreativlikni yechimlarni topishda bilimlarning yetarli bo'lmashligi muammosi, qiyinchiliklar qarshisidagi identifikatsiya va taxminlarning shakllanishi, yechimlarning topilish jarayoni deb qaraydi. (E. Torrens, 1996-y.) Ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-boshqaruv darajasida - ijodkorlik determinantlari borasida, jamoa ijodkorligini boshqarishda muammosi, jamoaning funksional-rolli differensiyasi yo'nalishi bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. "Farzandlarimizni mustaqil fikrlovchi, zamonaviy va kasb-hunarni egallagan, mustahkam hayot nazariyasiga ega chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masala hisoblanadi". Mustaqil fikrlovchi, zamonaviy bilimlarni egallagan, mustahkam hayot nazariyasiga ega chinakam vatanparvar avlodni tarbiyalash birinchi navbatda oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan pedagog-kadrlarni kasbiy faoliyatga har jihatdan tayyor bo'lishlarini taqozo etadi.³ Kreativlik ijodiy tafakkurning yangi mahsuli yoki natijasi ekanligi yuzasidan bahslar hali ham ayrim olimlar orasida davom etmoqda. Boshqa izlanishlarda ijodkorlikning yangilik yaratishdagi yetakchiligi ta'kidlanadi. V. Arteymning izlanishlarida ijodkorlik uning mahsuli bo'lgan obyektga qarab baholanmaydi, balki aniq munosabat belgilanadi. Uning fikricha: "Kreativlik — bilim, faoliyat va istakning uyg'unligi". Psixologiyada evristika muammosini o'rganish borasida N. Pushkin: "Evristik faoliyat shunday psixologik jarayonki, uning yordamida muammo yechimi topiladi, yangi yondashuv ishlab chiqiladi, evristik faoliyat deb ataluvchi qandaydir yangilik yaratiladi", degan edi. Kreativlikning tasniflanishi kasbiy faoliyat jarayonida namoyon bo'luvchi psixik komplekslar tarkibi bilan bog'liq.

Kreativlikning psixologik izlanishlardagi asosiy urg'u muammolarni mustaqil yechishga undovchi, o'ziga xos katta hajmdagi g'oyalarni yuzaga keltiruvchi va ularning o'ziga xos yechimini topishga asos bo'luvchi individning intellektual va shaxsiy qobiliyatiga qaratiladi. Kreativlik istisno etilgan va g'aroyib fenomen deb baholanuvchi dastlabki izlanishlardan farqli o'laroq, zamonaviy izlanishlarda kreativlik har bir shaxs ega bo'lishi mumkin bo'lgan individ kompleksi sifatida qaralmoqda. Bu kreativlik muammosiga turlicha yondashuvlarda namoyon bo'ladi: u faqatgina har bir shaxs ham qo'lga kirita olmaydigan natija emas, balki refleksiya va o'z-o'zini baholashdagi

³ Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "o'zbekiston", 2017 yil, 488 bet.





shaxsning yangicha sifat ko'rsatkichi deb qaralmoqda. Kreativlik haqidagi ko'pgina izlanishlarda har bir shaxsda u yoki bu daraja va miqdorda mavjud bo'ladigan psixologik kreativlik mexanizmi va ijodkorlik imkoniyatlariga asosiy e'tibor qaratilmoqda.

An'anaviy psixologiya va pedagogikada kreativlikka shaxs kategoriyasi sifatida qaraladi, uni talqin qilish, aniqlash borasida bahslar yuritilgan: kreativlik — tafakkur sifati (J. Gilford, Y.K. Tixomirov), yoki intellektual faollik sifati (D.B. Bogolevskaya, L.B. Yermolayeva tomonidan), yoki shaxs sifatlarining integratsiyalashuvi (Y.A. Ponomarev va boshqalar). Biroq oliy ta'lim pedagogikasida (kreativ andragogika) uning sifat ko'rsatkichini va namoyon bo'lish darajasini aniqlashning yo'llari yetarli emas.

Kreativlik biryoqlama salbiy jihat sifatida qaralsa-da, uning muammolar tizimi umumlashtiriladi va bir butunlikni tashkil etadi, bu ayniqsa o'zida ta'lim jarayonida ijodiy ta'lim va tarbiyani mujassamlashtirgan shaxsning ijodiy imkoniyatlari va kreativlikni rivojlantirish jarayonida oliy maktab pedagogikasiga taalluqlidir. Shu sababli, kreativlikni rivojlanish imkoniyatlarini kreativ ta'lim va tarbiya jarayonida shaxs kategoriyasi sifatida o'rganish zarur. O'tgan asrning 60-70-yillari pedagogikada kreativlik muammosini o'rganishda keskin burilish yillari bo'ldi. Shu davrda ijodiy izlanuvchan pedagog-novatorlar paydo bo'ldi. Novatorlar erishgan natijalar nafaqat pedagoglarni, balki psixologlarni ham qiziqtirdi, ular ijodiy ta'limining psixologik tomonlarini, ijod faoliyatining pedagogik psixologiyadagi mexanizmini o'rgandilar. (V.V. Davidov, I.A. Zimnaya, N.V. Kuzmina, A.M. Matyushkin, Y.A. Ponomarev, R.A. Mavlonova rahbarligidagi pedagogika fanlari ilmiy-tekshirish instituti jamoasi. Kreativlikni o'rganishda amalga oshirilgan nazariy tahlil uni kasbiy andragogikada qo'llashning umumiy qonuniyatlari va o'ziga xosligini aniqlash imkonini beradi (V.M. Morozov). Biz kreativlikning tizimlilik tuzilishidan kelib chiqib, unga shaxsning o'ta intellektual - evristik jihati sifatida emas, balki shaxsni qadrlovchi, tabaqalashtirilgan ta'lim sifatida qaraymiz.

Kreativlik — shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma'naviyatining ajralmas qismi bolib, shaxsni o'z-o'zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikni asosi, shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilishda va o'rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Kreativlik jarayonini tashkil etish va boshqarishning murakkabligi shundaki, bunda ijodiy individuallikning nafaqat ongli, balki ongosti tushunchalari paydo bo'ladi. Kreativlik tabiatini o'rganish muammosiga bag'ishlangan psixologopedagogik adabiyotlarni tahlil qilib, odatda, intellektual kreativlik masalasiga





duch kelamiz. Ijtimoiy va aniq pedagogik kreativlik sohasida amalga oshirilgan izlanishlar ancha kam. Ko'p hollarda tadqiqotchilar pedagogik kreativlik emas, balki pedagogik muloqot jarayonini o'rganadilar, o'qituvchi va o'quvchi muloqotini yaxshilash uchun tavsiyalar beradilar.

Pedagogika va psixologiyadagi kreativlik tabiati uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillar haqidagi yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirib quyidagicha xulosa chiqarish mumkin: Bu hodisa yaxlit va tuzilish jihatdan tushunish uchun yagona tushunchalar tizimi mavjud emas. Inson shaxsida kreativlik, uning darajasi, tuzilishi va o'ziga xosligi inson individualligining boshqa bir jihatini belgilash jarayonining o'ziga xosligi va shaxsiy faoliyatlari bilan uzviy bog'liq. Bu bog'liqlikni tasniflash kreativlik hodisasining kelajakda o'rganilishi kutilayotgan yangi bir yo'nalishidir. Kreativlikni intellektual kreativlik va ijtimoiy kreativlikka bo'lish mumkin. Intellektual kreativlik analiz va sintezdan iborat. Analiz va sintez qila olish qobiliyati umumiy intellektning asosidir. Ijtimoiy kreativlik o'zida kasbiy kreativlikni mujassamlashtiradi, uning ko'pgina turlari orasida pedagogik kreativlik ham mavjud. Pedagogik kreativlik kommunikativ va didaktik kreativlikdan iborat. Didaktik kreativlik o'zida intellektual boyliklarga intilish va shu bilan birga novatorlik qobiliyatida namoyon bo'ladi. Kommunikativ va didaktik kreativlik pedagogik qobiliyatning asosi hisoblanadi. Pedagogik qobiliyat ijodkorlik qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadi va o'z navbatida ichki sezgini rivojlantiradi. Pedagogik ijodkorlik qobiliyati, ichki sezim va umumiy intellekt kesishganida ijod mahsuli yaratiladi.

Xulosa: Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ tafakkurini shakllantirish bugungi ta'lim tizimida eng muhim yo'nalishlardan biridir. Ta'lim jarayonida o'qituvchilar faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, talabalarni yangi g'oyalar yaratishga, muammolarni hal qilishda innovatsion usullardan foydalanishga undashlari lozim. Kreativ tafakkur, o'qituvchining o'z pedagogik metodikalarini yangilash, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni zamonaviy hayotga moslashtirishda muhim ahamiyatga ega. o'qituvchilar kreativ tafakkurini shakllantirishning asosiy omillari quyidagilardan iboratdir: pedagogik malaka va professional tayyorgarlik, o'qituvchining o'zini-o'zi rivojlantirishga bo'lgan intilishi, shuningdek, o'qitish jarayonida metodik innovatsiyalarni qo'llash qobiliyati. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarni o'qitish jarayoniga joriy etish, guruhli ishlar va kreativ muammolarni hal qilishga asoslangan metodlarning qo'llanilishi o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Kreativ tafakkur o'qituvchining pedagogik faoliyatiga qo'shilgan yangi yondashuvlarni joriy etishda muhim rol o'ynaydi. Boshqa tomondan, ta'lim tizimida innovatsion metodlar va texnologiyalarni qo'llash





o'qituvchining o'quvchilarga yangi bilimlarni yetkazish samaradorligini oshiradi. Shu boisdan, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ tafakkurini shakllantirish nafaqat o'qituvchi, balki o'quvchilarning muvaffaqiyatli ta'lim olishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ tafakkurini shakllantirish ta'lim jarayonining sifatini oshirishda, o'quvchilarga bilimlarni samarali va innovatsion usullar bilan etkazishda katta ahamiyatga ega. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchilarni doimiy ravishda kasbiy rivojlanishga rag'batlantirish, ularning metodik va kreativ qobiliyatlarini yanada mustahkamlash zarurdir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

- 1.Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston", 2017 yil, 488 bet.
- 2.Prezident Sh. Mirziyoyevning 06.04.2021-yildagi PQ-5052sonli qarori
- 3.Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, iinovatsiya va integratsiyasi. O'quv qo'llanma./R.Mavlyanova, N.Raxmankulova. - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - Toshkent. Voris nashriyoti, 2013y 117-b.
- 4.Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua - Toshkent. 2016
5. "Pedagogik kompetentlilik va kreativlik asoslari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. :- Toshkent 2015,40 bet
- 6.Panjiyeva M, Ergasheva O "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi,innovatsiyasi va integratsiyasi" o'quv qo'llanma. Termiz 2014 142-b

